

NODIRA “FIROQNOMA”SINING NASHRLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Nematullayeva Marjona

Buxoro Davlat Universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishi
2 - kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Nodira lirikasida alohida qimmatga ega bo'lgan “Firoqnoma” muashsharining turli yillarda amalga oshirilgan nashrlaridagi matniiy tafovvutlar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: muashshar, firoqnoma, hijron, ayriliq.

Maknuna taxallusi bilan ijod qilgan buyuk shoiramiz Nodirabegim ijodida asosiy o'rinni g'azallar egallaydi, ammo boshqa janrlarda ham uning ijod namunalarini uchratamiz. Mumtoz adabiyotimiz tarixida firoqnoma yaratishga Mohlaroyim asos solgan desak xato bo'lmaydi. Chunki, shoira tarjimai holidan ma'lumki, hayotining so'nggi yigirma yilini umr yo'ldoshidan ayrilib, hijron azobida o'tkazdi. Bu uning yaratgan asarlariga ta'sir qilmay qolmadi, albatta. Hattoki, firoqnoma asarlar bitish, she'rlarida hijronni kuylash shoira ijodining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Nodirabegimning hijron haqidagi she'rlari orasida “Firoqnoma” asari kuchli tug'yonlari bilan alohida ajralib turadi. Ushbu she'r ijodkorning hayotidagi og'ir judolik va u tufayli shoira qalbida paydo bo'lgan iztiroblarni tasvirlaydi. Firoqnoma ruhidagi asarlarni ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Firoqnoma ruhidagi lirik asarlar
2. Maxsus “Firoqnoma”¹⁰⁰ muashshari

Firoqnoma muashshari shoira ijodining ayriliq, hijron mavzusida maxsus asaridir. Ushbu Firoqnoma muashshar janrida, ya'ni har bandi o'n misradan iborat bo'lgan shaklda bitilgan. O'n banddan ya'ni jami yuz misradan iborat bu asarning har bandi:

Hech kim, yo Rab, jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq, mehribon dildoridin ayrilmasun.

misrasi bilan tugallanadi. Komila yuksak mahorat ko'rsatib, muashsharning har bandi badiiy jihatini mukammallashtirib, ohangdorligini oshirgan. Banddagi o'n misraning oldingi sakkiz satri o'ziga xos qofiya tizimiga tushirilgan. Shoira lirik qahramoni oh chekib, falakning behad jabr-u jafo ko'rsatib, ayriliqda qismatini dard-u

¹⁰⁰ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/nodira-firoqnoma.html>

balo aylashidan, boshiga ko'p mojaro solishidan fig'on chekadi. Shoiraning "Firoqnoma" muashshari xalq og'zaki ijodiga mansub motam qo'shiqlariga o'ta yaqinligi sezilib turadi.

Mohlaroyimning "Firoqnoma" muashshari "Nodira. Asarlar" devonining II jildi, "Nodira.Devon" 1963- yildagi nashri, "Nodira.Devon" 2001-yildagi nashri, "Nodira she'riyatidan" 1979-yilgi nashrida chop qilingan.

Mazkur devonlarda so'z almashinishi va so'z tushishi bilan bog'liq mulohazaga tortuvchi o'rinlar mavjud.

Jumladan, "Firoqnoma" mushshar janrining quyidagi misrasi :

Ohkim, behad menga javru jafo aylar falak,¹⁰¹

Furqat ichra qismatim dardu balo aylar falak

"Nodira she'riyatidan" 1979-yilgi nashri, "Nodira.Devon" 2001-yildagi nashrida "manga" tarzida, "Nodira.Devon" 1963- yildagi nashri "mengo" tarzida, "Nodira.Asarlar" devonining II jildida esa "mango" tarzida qo'llaydi. Davr nuqtayi nazaridan qaraganda "mango" shakllari mosroq keladi.

Firoqnoma janrining ikkinchi bandiga tegishli mazkur misrasi:

Hajr dog'i dardmandu dilfigor aylar meni,

O'ylakim, javri falak zor-u nazor aylar meni

da ifodalanuvchi "dilfigor" so'zi "Nodira.Devon" 1963- yildagi nashri «da "dilfikor"¹⁰² tarzida uchraydi. "Dil xasta, dil yara" ma'nosini anglatuvchi "dilfigor" so'zi lug'atlarda ko'proq uchraydi.

Mohlaroyim dard ila yozgan ushbu "Firoqnoma" sining to'rtinchi band birinchi misrasida ham so'z almashinuvi bilan bog'liq o'rinlar mavjud. Jumladan :

Qaydasen yorim, so'rog'ingda ko'ngul ovoradur,

Kechalar to subh ashkim kavkabi sayyoradur.

Misrasidagi "qaydasen" so'zi "Nodira.Asarlar" devonining II jildida "qondasen" tarzida uchraydi. So'roq mazmunidagi ushbu so'zning shakli "qondasen" lug'atlarda keltirilmagan.

Firoqnomaning to'qqizinchi bandida:

Sen qilib azm-i safar dard ila ranjurmen,

Yod aylab lablaring sahbosini mahmurman¹⁰³

¹⁰¹ Mahbuba Qodirova. Nodira she'riyatidan. Toshkent: O'zbekiston Markaziy Komiteti nashriyoti, 1979. 91 bet.

¹⁰² Porso Shamsiyev. Navoiy asarlar lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972 .784- bet.

¹⁰³ Mahbuba Qodirova. Nodira. Devon. Toshkent: O'z.SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1963. 237- bet

Jumlasidagi “*ranjurmen*” so‘zi “Nodira.Devon” 2001-yildagi nashrida «*mahjurmen*» shaklida qo‘llanilgan. “*Ranjurmen*”¹⁰⁴ so‘zi “*kasalmand, dardmand ezilgan*” ma’nosini bildiradi. “*Mahjurmen*”¹⁰⁵ so‘zi esa “*ayrilib qolgan, uzoqlashgan*” ma’nosida qo‘llaniladi. Bayt mazmuniga e’tibor qaratsak, Sen safarga ketishga qaror qilganingdan dard ila ezildim, ammo lablaring qizilligini yod aylab xursand bo‘ldim deydi. Mazmundan aniqki, bu yerga “*ranjurmen*” so‘zi ko‘proq mos keladi.

Firoqnomaning so‘nggi bayti birinchi bayti shunday ifodalanadi :

Ey, mug‘anni nag‘masoz et, Nodira guftoridin,
Kim kelur bo‘yi vafo ushshoq aro ash‘oridin ¹⁰⁶

Ammo, “Nodira.Devon” 2001-yildagi nashrida Nodira taxallusi o‘rniga Komila taxallusi qo‘llangan, Komila taxallusi esa ko‘pincha fors-tojik g‘azallarda qo‘llanilgan.

Ushbu qiyoslardan ko‘rinib turibdiki, birgina so‘zning o‘zgarishi butun boshli asar mazmunini o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin, bunday xatolarning oldini olish esa matnshunoslar oldidagi dolzarb masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mahbuba Qodirova. Nodira.Devon. Toshkent: O‘z.SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1963. 237- bet.
2. Mahbuba Qodirova. Nodira she‘riyatidan.Toshkent: O‘zbekiston Markaziy Komiteti nashriyoti, 1979. 91 bet.
3. Mahbuba Qodirova. Nodira Asarlar. II jildlik devon. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1968.290 – bet
4. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, II tom. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983.605- bet.
5. Porso Shamsiyev.Navoiy asarlar lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972 .190- bet.
6. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, II tom. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983, 288- bet.

¹⁰⁴ Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, II tom. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983, 605- bet.

¹⁰⁵ Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati, II tom. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983, 288- bet.

¹⁰⁶ Mahbuba Qodirova . Nodira. Devon . Toshkent: O‘z.SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1963. 237- bet.